

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI**

XUDAYBERDIYEVA SHOHISTA AKMAL QIZI

**O‘ZBEKISTON VA TURKIYA RESPUBLIKALARI O‘RTASIDA
HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Xudayberdiyeva Shohista Akmal qizi

O‘zbekiston va Turkiya Respublikalari o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari 3

Khudayberdiyeva Shohista Akmal qizi

Legal basis for cooperation between the Republics of Uzbekistan and Türkiye 23

Худайбердиева Шохиста Акмал қизи

Правовые основы сотрудничества между Республикой Узбекистан и Турцией 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 46

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI**

XUDAYBERDIYEVA SHOHISTA AKMAL QIZI

**O‘ZBEKISTON VA TURKIYA RESPUBLIKALARI O‘RTASIDA
HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu901-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshqulov Jo‘raboy
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Saidova Lola Abduvoxiidovna
yuridik fanlar doktori, professor

Gafurova Sevara Alisherovna
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti DSc.07/27.02.2020.Yu.108.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-may kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100052, Toshkent sh., Katta Darxon ko‘chasi, 6-uy. Tel.: +99871 234-56-02; e-mail: yurmarkaz@adliya.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent sh., Katta Darxon ko‘chasi, 6-uy. Tel.: +99871 234-56-02; e-mail: yurmarkaz@adliya.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 25-aprel kungi 8-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.N. Toshev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.N. Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

M.A. Tillabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, global barqarorlikni ta'minlash hamda iqlim o'zgarishi, iqtisodiy nomutanosiblik va migratsiya kabi transmilliy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'ylab 700 milliondan ortiq odam kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashamoqda¹. Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotiga ko'ra, global ishsizlik darajasi 2023-yilda 5,8% ni tashkil etgan². BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yildan buyon global harorat 1,1°C ga oshgan, bu esa ekologik ofatlar va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda³. Ushbu muammolar xalqaro ishonchsizlik, mintaqaviy manfaatlar ziddiyati va resurslarning adolatsiz taqsimlanishi natijasida yuzaga kelmoqda. Muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro shartnomalar ijrosini kuchaytirish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, ekologik muammolar, terrorizm va qashshoqlikka qarshi qo'shma tashabbuslarni ilgari surish zarur. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va amaliyotni yaxshilash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlik va xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilinishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, xalqaro shartnomalarning huquqiy kuchini belgilash, ularning ijro mexanizmlarini takomillashtirish, huquqiy normalarning milliy qonunchilik bilan uyg'unlashuvi va davlatlar o'rtasidagi huquqiy integratsiya jarayonlarini o'rganish yuzasidan ma'lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan dunyo miqyosida bugungi zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning xalqaro shartnomalar asosida rivojlanishi va milliy huquqiy tizimlarga ta'sirining nazariy, amaliy va huquqiy jihatlarini kompleks tarzda o'rganuvchi tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirish, ushbu sohada muammolarni aniqlash hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlar berishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Respublikamizda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik hamkorlik izchil rivojlanib, iqtisodiyot, savdo, transport, ta'lim va madaniyat sohalarida muhim natijalarga erishilgan. Xususan, ikki tomonlama munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi 140 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁴gi Farmonida tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini

¹ Jahon Banki. "Global Poverty Update 2023". 2023-yil 12-oktabr. Rasmiy veb-sayt: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/10/12/global-poverty-update-2023>

² Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). "Global Unemployment Report 2023". Rasmiy veb-sayt: https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/newsroom/news/WCMS_865799/lang--en/index.htm

³ Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). "Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) Sixth Assessment Report". Rasmiy veb-sayt: <https://www.ipcc.ch/report/ar6/syr/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifalar o'z navbatida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, mavjud hujjatlarning davr talablariga muvofiqligini aniqlash, ikki davlat o'rtasidagi xalqaro shartnomalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda tegishli takliflarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi mavjud xalqaro-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish va zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi O'RQ-518-son "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonuni, 1993-yil 5-apreldagi "Narkotik vositalari va psixotrop moddalarini g'ayriqonuniy tarqatishga va terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida", 1994-yil 23-iyundagi "Fuqarolik, savdo va jinoyi ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish haqida", 1994-yil 23-iyundagi Konsullik konvensiyasi, 1996-yil 8-maydagi "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida", 1996-yil 8-maydagi "Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik qilish to'g'risida", 1997-yil 18-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasidagi hamkorlik to'g'risida", 2003-yil 19-dekabrdagi "Xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida", 2018-yil 30-apreldagi "Ekstraditsiya to'g'risida", 2018-yil 30-apreldagi "Madaniy hamkorlik to'g'risida", 2018-yil 23-apreldagi "Mintaqalararo hamkorlik to'g'risida"gi bitimlari, shuningdek 2017-yil 30-oktabrdagi PQ-3363-son "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy asoslari yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lib, ushbu yo'nalishda maxsus keng qamrovli tadqiqot mavjud emas. Shu bilan birga, O'zbekistonlik olimlarning ayrim ilmiy ishlari mazkur mavzuga oid muayyan masalalarni qisman yoritgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaviy huquqi, xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilik bilan uyg'unlashuvi, tashqi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari bo'yicha A.X. Saidov, J. Toshqulov, A.M. Qosimov, G.A. Matkarimova, A.A. To'laganov, N.S. Narmatov, D.Sh. Umarxanova, D.M. To'xtamuratov, I.R. Aliyev, Z.M. Mirzaaxmedov, M.R. Doschanov, Q. Rajabov, X. Bekmuratov, A.A. Matchonov, A.A. Niyozov, H.M. Yunusov, X.S. Isakdjanov, A.K. Kirgizboyev, M.N. Mirhamidova, R.T. Xakimov, O.Z. Muxammedjanov, S.Sh. Sharapova, M.M. Fayziyev kabi olimlarning tadqiqotlari mavjud.

Jumladan, xalqaro shartnomaviy munosabatlarning turli jihatlari I.M. Umaraxunov⁵ tomonidan xalqaro shartnomalarni tuzish va ijro etish jarayoni, L.A. Saidova⁶ tomonidan xalqaro va milliy huquq normalarining o‘zaro bog‘liqligi, I. Boboqulov, A. G‘ofurov va G. Yuldasheva tomonidan xalqaro huquqiy normalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi doirasida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan S.N. Baburin, V.V. Ershov, E.G. Lukashuk, V.M. Shumilov, N.M. Korkunov, S.A. Kotlyarovskiy, N.A. Zaxarov, V.N. Kazakov, S.N. Dubinkina, L.D. Timchenko, V.V. Gavrilov, P.N. Biryukov, V.G. Xrabskov, N.I. Kostenko, A.G. Svetlanov xalqaro shartnomalarning ijrosini ta’minlash mexanizmlarini, davlatlarning xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarish tartibini, shuningdek, xalqaro shartnomalar huquqining dolzarb masalalarini tadqiq etgan.

Xorijiy mamlakatlarda esa P. Foshil, A. Bustamante, N. Bergbom, X. Tripel, R. Kolb, A. Ost, P. Duarte, R. Karabuliev, S. Gyuzel, T. Uzbashi, G. Demir, S. Sonmez, A. Bayramov⁷ kabi olimlar tomonidan Turkiyaning xalqaro shartnomaviy huquqi, xalqaro huquqiy kelishuvlarining nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan.

Shunga qaramay, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi, huquqiy uyg‘unlashuv jarayonlari va shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi masalalari kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur huquqiy jihatlarni ilmiy asosda tahlil qilish, xalqaro shartnomalarning samaradorligini oshirish va ikki davlat o‘rtasidagi huquqiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2022-yilda tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi xalqaro-huquqiy jihatlarning yuridik tabiatini, xalqaro shartnomalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy tadqiq etish va xalqaro shartnomalarning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari tushunchasi va mazmuni xalqaro huquq nuqtayi nazaridan tahlil qilish va ushbu tushunchalarga mualliflik tarifini berish;

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro-huquqiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlili natijalari asosida xulosalar chiqarish;

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro shartnomalarning yuridik tabiati va klassifikatsiyasini tahlil qilish va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib tasniflash;

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi sohalariga oid xalqaro shartnomalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash va mualliflik tavsifini

⁵ Умарухонов И.М. Международная договорно-правовая практика Республики Узбекистан. –Т.; 2003. –423 с.

⁶ Саидова Л.А. Дипломатическое право в Узбекистане: проблемы теории и практики: Автореф. дис... докт. юр.наук. –Т.:УМЭД 2001. –50с.

⁷ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

berish;

O‘zbekistonning Turkiya bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorligining huquqiy jihatlarini yoritish va hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnomalarni rivojlantirishning xalqaro-huquqiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston va Turkiyaning TDT doirasidagi o‘zaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlik natijasida yuzaga keladigan xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikni huquqiy tartibga solishga qaratilgan xalqaro shartnomalar, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi, ilmiy-nazariy qarash va yondashuvlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma’lumotlar tahlili kabilardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining, xalqaro hamkorlikning asosiy sohalaridagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy bazasini takomillashtirish lozimligi sababli, xalqaro shartnomalarning ratifikatsiyasi, ijrosi va milliy qonunchilikka implementatsiyasini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi asoslangan.

parlamentlararo hamkorlikning qonunchilik asoslarini shakllantirish va takomillashtirish lozimligi sababli, boshqa davlatlarning parlamentlari va xalqaro parlament tashkilotlari bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar, komissiyalar, qo‘mitalar, ishchi guruhlar va boshqa tuzilmalarni tashkil etish hamda ularning samaradorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilganligi asoslangan.

ikki davlat o‘rtasida mahkumlarni topshirish shartlarini huquqiy jihatdan aniq belgilash lozimligi sababli, ikki davlat prokuraturalari o‘rtasida hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, tergov qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda axborot almashish tartibini takomillashtirish zarurligi asoslangan.

ikki davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashish lozimligi sababli, tomonlarning fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida muntazam ravishda ikki tomonlama maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibini joriy etish ikki davlatda inson huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi shartnomaviy-huquqiy bazasining rivojlanish jarayoni besh bosqichga bo‘lingan holda tahlil qilindi. Ushbu bosqichlar asosida xalqaro shartnomalarning shakllanishi, ularning milliy qonunchilikka ta’siri va huquqiy uyg‘unlashuv jarayonlari asoslangan;

Xalqaro shartnomalarni klassifikatsiyalashga yangicha uslubiy yondashuv

ishlab chiqildi. Shunga muvofiq, ikki davlat o'rtasidagi shartnomalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar, huquqiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash asoslangan;

O'zbekiston va Turkiya o'rtasida xalqaro jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordamni takomillashtirish zarurati asoslandi. Jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida maxsus bitim imzolash zarurati asoslangan;

JPKning 594-moddasiga chet davlatlardan olingan dalillarni qabul qilish va ularning qonuniyligi tekshirilishi tartibini belgilash lozimligi asoslangan;

JPKning 170-moddasiga xalqaro telefon so'zlashuvlarini eshitib turish bo'yicha tezkor axborot almashish mexanizmini tartibga soluvchi qo'shimchalar kiritish zarurligi asoslangan;

Turkiya va O'zbekiston o'rtasida hamkorlik va tajriba almashish platformasi yaratish lozimligi asoslangan;

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi "Ekstraditsiya to'g'risida"gi bitimning 5-moddasi s) bandiga shaxsiy holat tushunchasini kengaytirish lozimligi asoslangan;

Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida huquqiy yordam va ekstraditsiya masalalarini tartibga soluvchi yagona hujjat ishlab chiqish zarurligi asoslangan;

O'zbekiston va Turkiya o'rtasida transport-logistika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

O'zbekistonning dengizga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha xalqaro huquqiy kelishuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan xalqaro huquq sohasida tadqiqot ishlarini olib borishda, qonun ijodkorligida, milliy qonunchilikni takomillashtirishda, "Xalqaro shartnomalar huquqi", "Xalqaro tashkilotlar huquqi" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi xulosa va takliflardan O'zbekiston va Turkiya o'rtasida xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro shartnomalarning samaradorligini oshirish, xalqaro jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida axborot almashinuvi tizimini rivojlantirish, sud-huquq tizimi va tergov organlari faoliyatida, shuningdek, xalqaro huquq bo'yicha yuridik oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining,

xalqaro hamkorlikning asosiy sohalaridagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy bazasini takomillashtirish, parlamentlararo hamkorlikning qonunchilik asoslarini shakllantirish va takomillashtirish, boshqa davlatlarning parlamentlari va xalqaro parlament tashkilotlari bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhlar, komissiyalar, qo‘mitalar, ishchi guruhlar va boshqa tuzilmalarni tashkil etish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, boshqa davlatlarning parlamentlari xalqaro parlament guruhlari va xalqaro parlament tashkilotlari, shu jumladan TDTning Parlament Assambleyasi bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish haqidagi taklif 2020-yil 25-sentabrda qabul qilingan №481-IV/KQ-132-IV-sonli “O‘zbekiston Respublikasining parlament diplomatiyasi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo‘shma qaroriga asosan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining parlament diplomatiyasi konsepsiyasi”ning 3.1.1, 4.1.1, 5.8, 5.10-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasining 2024-yil 23-sentabrdagi 04/6-10-2404-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy qilinishi davlatlar o‘rtasida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

ikki davlat o‘rtasida mahkumlarni topshirish shartlari: a) basharti ushbu shaxs hukmni ijro etish Davlati fuqarosi bo‘lsa yoki bunday fuqaroligi bo‘lmagan holda, hukmni ijro etish Davlati bilan bog‘lik mustahkam ijtimoiy aloqalari mavjud bo‘lsa; b) basharti sud qarori qonuniy kuchga kirgan bo‘lsa; c) basharti topshirish to‘g‘risidagi so‘rov kelib tushgan paytda mahkum tomonidan jazo muddatining o‘talmay qolgan qismi to‘qqiz oydan kam bo‘lmasa; d) basharti mahkum topshirilishga rozilik bildirsa yoki uning yoshi yoki jismoniy yoxud ruhiy holatini e‘tiborga olib, ikki Davlatdan biri buni lozim deb topgan taqdirda, bunday rozilik qonuniy vakil tomonidan bildirilgan bo‘lsa; e) basharti hukm chiqarishga asos bo‘lgan harakat yoki harakatsizlik hukmni ijro etish Davlati qonunchiligiga muvofiq jinoyat hisoblansa yoki bunday qilmish uning hududida sodir etilgan taqdirda jinoyat hisoblansa; va f) basharti hukm chiqarish va hukmni ijro etish Davlatlari topshirishga rozi bo‘lsa haqidagi taklif 2022-yil 29-martda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkiya Respublikasi Hukumati o‘rtasida mahkumlarni topshirish to‘g‘risida”gi bitimning 4 moddasini a, b, c, d, e, f bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Xalqaro-huquqiy boshqarmasining 2024-yil 26-sentabrdagi 26/2-112674/24-sonli dalolatnomasi*). Ushbu shartlar mahkumlarni topshirish jarayonining huquqiy asoslarini aniq belgilash, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro huquqiy hamkorlikni rivojlantirish hamda jinoyat jazolarini ijro etishda davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

ikki davlat prokuraturalari o‘rtasida hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, ikki davlat prokuraturalari o‘rtasida tergov qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda axborot almashish tartibi ya’ni 2022-yil 23-mayda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan Turkiya Respublikasi Oliy kassatsiya sudi Bosh prokuraturasi o‘rtasida imzolangan anglashuv Memorandumining 3, 4 paragraflarini ishlab

chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Xalqaro-huquqiy boshqarmasining 2024-yil 26-sentabrdagi 26/2-112674/24-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy qilinishi ikki davlat prokuraturasi o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ikki davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashish maqsadida Tomonlar o‘rtasida aloqalarni rivojlantirish va kengaytirish, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha muntazam ravishda ikki tomonlama maslahatlashuvlar o‘tkazish, Tomonlarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarini rivojlantirishga ko‘maklashish haqidagi takliflar 2022-yil 7-iyunda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Turkiyaning Inson huquqlari va tenglik instituti o‘rtasidagi o‘zaro anglashuv Memorandumining: 2-3-moddalarini ishlab chiqishda foydalanildi (*Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2024-yil 17-sentabrdagi 11/920-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy qilinishi davlatlar o‘rtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, xususan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan xorijiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning ilmiy — nazariy asoslari**” deb nomlanib, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari tushunchasi va mazmuni, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro-huquqiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi xalqaro shartnomalarning yuridik tabiati va klassifikatsiyasi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya” (1970) xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Ushbu prinsiplar, jumladan, suveren tenglik, ichki ishlariga aralashmaslik, zo‘ravonlikdan tiyilish va xalqaro hamkorlik tamoyillari O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Har ikki davlat o‘zaro hurmat, suverenitetga rioya va tinchlikparvarlik asosida siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarida hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, xalqaro huquq normalariga asoslangan do‘stona munosabatlarning namunasi sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Tadqiqotchi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning ilmiy-nazariy asoslarini xalqaro huquq nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Hamkorlik vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, “xalqaro shartnomalar” kabi tushunchalarga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqiladi. Xalqaro shartnomaviy-huquqiy hamkorlikning mustahkamlanish jarayonini ko‘rib chiqadi, uning bosqichlarini aniqlaydi, xalqaro shartnomalarning tasnifi, davlatlararo shartnomalarning xususiyatlari va ularning tasniflanish muammolari tahlil qilinadi.

Hamkorlik davlatlar va tashkilotlarning o‘zaro bog‘liqligining ko‘rsatkichidir. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va ilmiy hamkorlik tizimlarini yaratadi. So‘nggi yillarda insoniyatning global muammolari bilan bog‘liq hal etilmagan muammolar keskinlashdi. Bu sohada jahon muammolarini hal etishga hissa qo‘shadigan xalqaro faoliyatni kengaytirish nihoyatda dolzarbdir. Hamkorlik o‘zaro almashinuv asosida rivojlanayotgan munosabatlar majmuasidir. Zamonaviy voqelik sharoitida xalqaro munosabatlar dialog o‘rnatish, manfaatlarni taqqoslash, konsensusga erishish, qadriyatlarining nomuvofiqligi holatlarida va mintaqalar, mamlakatlar va tashkilotlar o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarda muvofiqlashtirish mexanizmlari jarayoniga o‘xshaydi.

Hamkorlikning mazmuni davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar orqali mustahkamlanadi. Bu jarayon xalqaro tashkilotlar doirasida ham amalga oshiriladi, masalan, BMT va Turkiy davlatlar tashkiloti. Shu bilan birga, hamkorlik jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirish va mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro shartnoma orqali davlatlar o‘z suverenitetiga oid funksiyalarini amalga oshirishi hamda shartnomalar tuzilishi orqali o‘zaro hamkorlikning huquqiy va siyosiy munosabatlari mustahkamlangan, ikki tomonlama hamkorlikdagi mavjud muammolarni hal qilish imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Shartnomaviy-huquqiy asosning tarixiy-huquqiy tahlili O‘zbekiston va Turkiya shartnomaviy-huquqiy bazasining shakllanishida ikki tomonlama munosabatlarning yuqori darajadagi intensivligi kuzatilayotganligi, o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga yordam berishi asoslangan. Shuningdek, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini aniqladi. Xususan, birinchi bosqich 1991-yildan 2016-yilgacha, ikkinchi bosqich 2016-yildan to hozirgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

O‘zbekiston va Turkiya shartnomaviy-huquqiy hamkorligining samaradorligini oshirish uchun shartnomaviy-huquqiy vositalarning o‘zaro

bog'liqligi va uyg'un ishlashini kuzatish imkonini beradi. Bu vositalar faqat shartnomaviy-huquqiy asoslar, huquq normalari, huquqiy munosabatlar, huquqni qo'llash aktlarini emas, balki ikki davlatning shartnomaviy siyosati va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan xalqaro shartnomalar xalqaro huquqning subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va ularni rivojlantiruvchi huquqiy asosdir. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish "pacta sunt servanda"⁸ tamoyiliga asoslangan xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlaydi va BMT Ustavi maqsadlariga muvofiq xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. 1969-yilgi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq, shartnoma – davlatlar o'rtasida yozma ravishda tuzilgan va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan, bunday kelishuv yagona hujjatda yoki bir-biriga aloqador ikki yoki undan ortiq tegishli hujjatlarda bo'lishidan va uning aniq nomlanishidan qat'i nazar xalqaro kelishuvni anglatishidan kelib chiqqan holda davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ular mustaqil ravishda guruh, maqsad, vazifalar, roli va ahamiyati bo'yicha turli xil belgilarga ega ekanligi aniqlanadi. Ular har qanday xalqaro va milliy shartnomaga xos bo'lgan umumiy xususiyatlari, ya'ni siyosiy xarakterga egaligi, ixtiyoriy ravishda tuzilganligi va boshqalar bilan ajralib turadi. Ushbu umumiy xususiyatlar shartnomalar va ularning normalarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalqaro shartnomalarning umumiy va o'ziga xos belgilari huquqiy jihatlarining aniqlanishi, ularni to'g'ri tasniflash va ikki davlat o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy bazani tizimlashtirishga katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **"Xalqaro shartnomalar doirasida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy jihatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga oid sohaviy xalqaro shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasi bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida hamkorligining huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-fevraldagi O'RQ-518-sonli "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonuni asosida ilmiy asoslangan tarzda o'zbek-turk xalqaro shartnomalarining tasnifi to'rt guruh bo'yicha amalga oshirildi. Birinchi guruhga diplomatik munosabatlar o'rnatish, umumsiyosiy masalalar, tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi shartnomalar kiradi. Ikkinchi guruhga iqtisodiy sohaga oid shartnomalar: savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni, moliyaviy-iqtisodiy kelishuvlarni, investitsiyani himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda transport kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan shartnomalar joy olgan. Uchinchi guruhda ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni nazarda tutuvchi shartnomalar. To'rtinchi guruh konsullik munosabatlari, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha shartnomalarning o'ziga xos jihatlari xalqaro huquqning nazariy

⁸ 1969-yilda qabul qilingan "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasining 26-moddasi // <https://lex.uz/docs/2646414>

asoslariga tayanib ushbu sohalarga oid xalqaro shartnomalar tasniflandi va quyidagi fikrlarga kelinadi:

1. Xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash ikki davlatga erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda yagona, kelishilgan huquqiy amaliyotdan chiqish imkonini beradi. Binobarin, ushbu jihatdagi keyingi tadqiqotlar O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalqaro shartnomalarning moddiy-huquqiy normalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy sohaga oid munosabatlarni quyidagicha guruhlash kerak: iqtisodiy munosabatlarning xalqaro huquqiy rejimini belgilovchi shartnomalar, ular orasida savdo shartnomalari eng muhim o'rinni egallaydi; tovarlar va xizmatlarning davlat chegaralari orqali olib o'tishini tartibga soluvchi shartnomalar, ular o'z navbatida tovar aylanmasi to'g'risidagi savdo shartnomalari, sanoat, transport va boshqa xalq xo'jaligi loyihalarini qurish uchun texnik xizmat ko'rsatish, texnik yordam ko'rsatish va jihozlar yetkazib berish, o'zaro tovar yetkazib berish va tovar kontingentlari to'g'risidagi boshqa shartnomalar va o'zaro savdo ayirboshlash kvotalari kabi turlarga bo'linadi.

3. Transport shartnomalarining obykti va ularni tartibga solish predmeti shundan iboratki, transport bog'lovchi bo'g'in sifatida o'ziga xos murakkab ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning asosiy omili bo'lib, mahsulot, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi zarur aloqani ta'minlaydi. Bu yuridik fanda transport huquqini qamrab olgan yangi murakkab huquq tarmoqlarini shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'ladi.

4. O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi ijtimoiy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarni tasniflashda biz shartnoma predmetini ham hisobga oldik. Shuning uchun bunday xalqaro shartnomalarni xalqaro munosabatlar turiga qarab ikki kichik guruhga bo'lish mumkin: ilmiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar va ijtimoiy-gumanitar shartnomalar.

5. Ikki davlat o'rtasida inson huquqlari sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida doimiy ravishda ikki tomonlama maslahatlashuvlarni tashkil etish va tajriba almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi. Ushbu jarayon milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan birgalikdagi ilmiy tadqiqotlar va qonunchilik tashabbuslarini amalga oshirish bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Shuningdek, inson huquqlariga oid muammolarni aniqlash va ularni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilish orqali hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday tashabbuslar davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va inson huquqlarining himoyasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

6. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Parlamentlararo do'stlik guruhlarining faoliyatini kengaytirish va bu yo'nalishda mustahkam huquqiy platformani shakllantirish taklif etiladi. Ushbu hamkorlikni korrupsiyaga qarshi kurash, inson huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda qo'shma qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish orqali yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tashabbuslar ikki davlat qonunchilik tizimlarini xalqaro standartlarga

moslashtirishga va innovatsion qonunchilik mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va madaniy almashinuv sohaslarida qo'shma dasturlarni amalga oshirish orqali ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi madaniy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish tavsiya etiladi. Madaniy merosni himoya qilish va yoshlar o'rtasida gumanitar aloqalarni mustahkamlash bo'yicha tashabbuslarni kengaytirish orqali xalqlar o'rtasidagi yaqinlikni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, huquqiy sohadagi hamkorlikni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar, ular xalqaro huquqning muayyan manbalari qoidalarining to'liq va samarali amalga oshirilishiga yordam beradigan institutsional xususiyatga ega. Qonun chiqarish sohasida huquqiy yordam xalqaro hamkorlikning majmuaviy komponenti sifatida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshirish jarayonida xalqaro huquqiy majburiyatlarni bajarishga yordam beradi. Bu milliy huquqiy tizimlarni yaqinlashtirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida fuqarolik, savdo va jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi hukumatlararo shartnomalarni jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam manbalari tizimida ko'rib chiqish lozim, chunki ular davlatlararo huquqiy yordam shartnomalarini aniqlashtirib beradi va ularning amalga oshirish tartibini belgilaydi. Bu jarayonda xalqaro huquqiy normalarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki xalqaro huquqiy normalarning ijtimoiy qiymati va samaradorligi ularning amalga oshirilishida aniq namoyon bo'ladi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning bevosita amalga oshirilishi milliy davlatlarning suverenitetiga asoslangan va suveren huquqiga mos keladi. Masalan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida fuqarolik, savdo va jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomaga ko'ra, agar qarorlarning e'tirof etilishi yoki ijrosi shartnoma tuzuvchi tomonlarning suverenitetiga, xavfsizligiga yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, yoki huquqiy yordam berish haqidagi so'rov ushbu shartnoma tuzuvchi tomonning siyosiy murojaati bo'lsa, bu bunday so'rovdan bosh tortish uchun asos bo'lishi mumkinligi asoslantirilgan.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalqaro shartnomalar qoidalaridan kelib chiqqan holda, dissertant tomonidan jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordamni tartibga soluvchi manbalarning tasnifini ishlab chiqish taklif qilingan. Ularni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir: 1) huquqiy yordam va hamkorlik to'g'risidagi xalqaro shartnomalar; 2) huquqiy yordam normalarida yordamchi rol o'ynaydigan xalqaro shartnomalar. Bunday ajratish faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki u xalqaro shartnomalarning qaysi normalariga ustuvorlik berish kerakligini aniqlash imkonini beradi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy tartibga solish xalqaro shartnomalarning amaliy bazasida muhim o'rin tutadi, bu O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikning amaliy natijalarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada o'rganish zarurligini belgilaydi.

Bundan tashqari, ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik doirasida rivojlanishning yangi yo'nalishi bo'lgan energetika sohasidagi hamkorlik transport

munosabatlarining yangi turini – xalqaro quvur transportini Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun birinchi o‘ringa olib chiqdi. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi transport-kommunikatsiya hamkorligining shartnomaviy-huquqiy bazasini shakllantirish bo‘yicha aniq qadamlar O‘zbekiston Respublikasining transport-tranzit salohiyatini yuksaltirishga ko‘maklashuvchi xalqaro shartnomalar tuzish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, respublikaning xalqaro yuk tashish va energiya resurslarini tashish tizimidagi rolini kuchaytirish, transport kommunikatsiyalari salohiyatini oshirish va bu boradagi davlatlararo loyihalarni yanada rivojlantirish va amalga oshirishga xizmat qiladi.

TDTning ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikda tutgan o‘rni va uning faoliyat yo‘nalishlari xalqaro tashkilotning hujjatlari orqali o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasining TDTdagi a‘zoliqi mamlakatning ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish siyosati nuqtai nazaridan alohida dolzarb ahamiyatga ega. Chunki davlatlar o‘z milliy manfaatlarini ichki ehtiyojlar va milliy xavfsizlik talablaridan kelib chiqib belgilaydi, bu esa xalqaro-huquqiy bazaning rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘zbekistonning 2022-yilda TDTga raisligi mazkur tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish va uning me‘yoriy-huquqiy bazasini mustahkamlashga yordam berdi.

Bundan tashqari, muallif tomonidan TDTning xalqaro huquqda to‘laonli subyekti ekanligi asoslashga harakat qilindi, uning xalqaro tashkilotga xos bo‘lgan xususiyatlari ochib berildi.

TDT doirasidagi O‘zbekiston va Turkiya hamkorligining xalqaro huquqiy asoslarini o‘rganib, ularni maqsadga muvofiq ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni ta‘minlash masalalarini tartibga soluvchi shartnomalar, shuningdek, gumanitar sohada hamkorlik masalalarini tartibga soluvchi shartnomalar. TDT faoliyatining huquqiy bazasining asosiy hujjatlari predmeti bo‘yicha olti guruhga bo‘linadi: siyosiy, xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan, savdo-iqtisodiy, transport, ilmiy va madaniy-gumanitar, huquqiy hamda TDTning boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini tartibga soluvchi hujjatlar. TDT doirasidagi o‘zbek-turk shartnomaviy-huquqiy hamkorlik uchun ayrim davlatlarning amaldagi huquqiy tizimlari va mintaqaviy huquq tizimlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda qonunchilikni muvofiqlashtirish juda muhimdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bob **“O‘zbekiston va Turkiya Respublikalarining ikki va ko‘p tomonlama shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish”** deb nomlanib, mazkur bobda O‘zbekiston va Turkiya respublikalarining ikki va ko‘p tomonlama shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish, O‘zbekiston va Turkiyaning TDT doirasidagi o‘zaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, ushbu sohalarning turli xil yo‘nalishlaridagi xalqaro-huquqiy jihatlarining ko‘pligi va ularning siyosiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligi ushbu yo‘nalishlarni tartibga solish xalqaro-huquqiy hujjatlar shaklida amalga oshirilishini talab qiladi.

Shu sababli, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport hamkorligining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan xalqaro iqtisodiy shartnomalarni to‘liq va yetarli darajada huquqiy tartibga solishga bog‘liq. Mamlakatlararo savdo aloqalarini yanada yaqinlashtirish, eksport-import ko‘rsatkichlarini yanada oshirish borasida savdo-iqtisodiy shartnomalarni sifat jihatidan takomillashtirish shart. Bu nuqtai nazardan xalqaro shartnomalarning normalarini samarali amalga oshirishning tizimli tahlilini o‘tkazish hamda ularning huquqshunoslari va mutaxassislari o‘rtasida xalqaro shartnomalarni takomillashtirish yo‘llari to‘g‘risida muntazam fikr almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hukumatlararo hujjatlarda keltirilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish huquq va qonun ijodkorligi texnologiyasi sohasida O‘zbekiston va Turkiyaning umumiy mezonini aniqlash imkonini beradi, bu ikki davlat uchun ham xalqaro iqtisodiy shartnomalarni tuzishda samarali huquqiy qoidalar va shakllarni ishlab chiqishga yordam beradi, hamda ulardan hamkorlik jarayonida bir xilda foydalanishni ta‘minlaydi.

Huquqiy masalalar bo‘yicha hamkorlikdagi ayrim muammolar va ularning yechimi keltiriladiki, huquqiy sohadagi hamkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, huquqiy yordam ko‘rsatish, xalqaro shartnomalarning talablari va normalariga muvofiq tartibga solinadi. Huquqiy yordam huquqning turli sohalarining normalari bilan ta‘minlangan xalqaro majburiyatlar mezonini sifatida ushbu sohadagi shartnomalarni doimiy takomillashtirishni talab qiladi, bu esa davlatlararo munosabatlar va huquqiy yordam hajmi bilan muvofiq keladi. (“Milliy qonunchilikka tayangan holda, davlatlar xalqaro huquqni rivojlantirishning tashabbuskorlari hisoblanadi, yangi bitimlarni tuzadi, shuningdek, barcha huquqiy kamchiliklarni bartaraf qiladi”).

Tashkilotning xalqaro huquqdagi o‘rni, tashkilotning asosiy tuzilmalari hamda a‘zo davlatlarning shartnomaviy-huquqiy bazasida umumiy mezonlarni aniqlash va hamkor davlatlar o‘rtasida xavfsizlik tizimini shakllantirish uchun yagona yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etadi.

O‘zbekiston Turkiya va boshqa a‘zo davlatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri TDT doirasidagi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini shakllantirish hisoblanadi. Savdo va investitsiyalarning o‘zaro munosabatlarini yanada moslashuvchan tuzilishini yaratish, davlatlar va kuzatuvchi davlatlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning siyosiy-huquqiy tartibga solishini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun shartnomaviy-huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur.

